

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball olganlar soni va ularga ajratilgan pullar:

4679
nafar yosh

8 577 481 034
so'm

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

28 (16481)
2022-yil, 11-may
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

9-may – Xotira va qadrlash kuni
4-bet

Inson qadri ulug',
xotira muqaddas

Ibrat
6-bet

Qatag'ondagi
qahramon millat ayollari

Nigoh
7-bet

Barmoqning zarbi
chertishdir...



“BO‘ZATOV FEST”:

“YOSHLAR OVOZI” BOSHLANDI

batafsil
2-betda ↓

“BO‘ZATOV FEST”:

“YOSHLAR OVOZI” BOSHLANDI

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

10-MAY.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Bo‘zatov FEST” – “Yoshlar ovozi” tanlovining 2022-yilgi mavsumi final bosqichiga start berildi. Ijodiy jamoa, hakamlar hay‘ati, san‘atkorlar va finalda ishtirok etadigan iste‘dodli yoshlar Qoraqalpog‘istonga yetib keldi. Mehmonlar Yoshlar ishlari agentligi hamda mas‘ullar tomonidan karnay-surnay sadolari ostida yuqori kayfiyat bilan kutib olindi.

– Barchangizni Qoraqalpog‘iston zaminida ko‘rib turganimizdan juda xursandmiz, – dedi Yoshlarni tantanalik kutib olish tadbirida so‘z olgan Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari **Jamshid Xo‘jayev**. – Bo‘zatov mana shunday festival, tadbirlar o‘tkazish, yosh iqtidor egalarini kashf qilish uchun o‘z hissasini qo‘shmoqda. Buning uchun minnatdorchilik bildiramiz. Barcha ishtirokchilarga g‘alaba yo‘lida omad tilab qolaman!

Yoshlar ishlari agentligining an‘anaviy tanlovlaridan biriga aylananayotgan “Bo‘zatov FEST” – “Yoshlar ovozi” tanlovi bu yil ikkinchi marotaba o‘tkazilmoqda. Finalning ochilish marosimi Nukus amfiteatrida bo‘lib o‘tdi. Yurtimizning taniqli san‘atkorlari, iqtidorli yoshlar ijrosida gala konsert ham tashkil landi.

Shu kuni yoshlar Nukus shahridagi yetti iqlimga mashhur tarixiy muzey – “Sovetskiy”ga tashrif buyurdi. Bu yerda qoraqalpog‘ xalqining ko‘p ming yillik tarixi, kelib chiqishi, madaniyati, urf-odatlarini haqida qimmatli ma‘lumotlarni olishdi.

– Tanlovga Sirdaryo viloyatidan keldik, – **deydi Sitara Muhammadiyeva**, – An‘anaviy xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha 16–22 yosh toifasida ishtirok etaman. Bugungi kundan taassurotlarim katta, judayam xursandman. Bizni zo‘r kutib olishdi, barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Avvalgi mavsumda ham bu tanlovda qatnashganman, lekin final bosqichiga chiqa olmagan dim. Bu yil yanada kuchliroq tayyorlanib, bilimlarimni mustahkamlab, finalga yetib keldim. Munosib ishtirok etib, oliy o‘rinlarni olishga harakat qilamiz.



ENG KO‘P TALABGORLAR

Tanlovning hududiy bosqichlarida jami 1 725 nafar yosh ishtirok etdi. Eng ko‘p talabgorlar estrada yo‘nalishiga to‘g‘ri keldi – 615 nafar ishtirokchi omadini sinovdan o‘tkazdi. Baxshichilik yo‘nalishida esa eng kam – 237 nafar ishtirokchi qatnashdi.

Hududiy bosqich yakunida gala konsertlar uyushtirildi. G‘olib va sovrindorlar, faol ishtirok etganlar katta sahnalarda o‘z san‘atini namoyish etish imkoniga ega bo‘ldi. Diplom va esdalik sovg‘alar tantanalik topshirildi. Respublika bosqichida ishtirokchilarning chiqishlari to‘liq televidion formatda tasvirga olinadi. Sozanda-yu xonandalar, barcha iste‘dodlar kuy-qo‘shiqlarni jonli ijro etadi.

Final ikki bosqichga – final va super final bosqichlarga bo‘linadi. Har bir yo‘nalish va yosh toifasida eng yuqori ball to‘plagan uch nafar ishtirokchi super final bosqichiga yo‘l oladi. Super finalda hakamlar ularga ijro uchun qo‘shimcha shart beradi. G‘oliblar nomi Bo‘zatov tumanida bo‘lib o‘tadigan yakuniy konsertda e‘lon qilinadi.



“YANGI OVOZLARNI KASHF ETISHGA XIZMAT QILADIGAN TANLOVDA 10 YOSH DAN 30 YOSH GACHA BO‘LGAN 238 MING NAFARDAN ORTIQ YOSHLAR UCH YOSH (10–15, 16–22 VA 23–30) TOIFASIDA O‘Z ISTE‘DODINI NAMOYISH ETMOQDA.



“Bo‘zatov FEST” boshlandi! Tanlov chin ma‘noda mamlakatimizda iste‘dodli yoshlar kashf etilishiga xizmat qilmoqda. Tanlovning respublika bosqichi 15-mayga qadar davom etadi. Unda hududiy bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan jami 152 nafar ishtirokchi g‘oliblik uchun kurashadi. Bo‘sh vaqtlari Nukus shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat qilib, Milliy taomlar va qadriyatlar festivalida ishtirok etishadi.



“

HAR BIR YO‘NALISH BO‘YICHA 1-O‘RIN EGASI 50 MILLION SO‘M, 2-O‘RIN 30 MILLION HAMDA 3-O‘RIN SOVRINDORI 20 MILLION SO‘M PUL MUKOFOTINI QO‘LGA KIRITADI. RESPUBLIKA BOSQICHIDA QATNASHGAN BOSHQA BARCHA ISHTIROKCHI 10 MILLION SO‘MDAN PUL MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANADI.

“YOSHLAR BIZNES MARKAZI”: 100 DAN ORTIQ YOSH ISH O‘RNIGA EGA BO‘LADI

Mahallamizning har bir ko'chasiga volentyor yigit-qizlardan ko'cha sardorlari saylaganmiz. Ko'cha sardorlari o'ziga birlashtirilgan hududdagi muammo va masalalarni o'rganib, takliflarini bildiradi. Ular bilan maslahatlashib, birinchi galda eng muhimini hal qilishga kirishamiz.

Yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun 3 ta ko'chamizning har birida voleybol maydonchasi va 4 ta sport zal tashkil qildik. Sport zallarida 240 nafardan ziyod yoshlar muntazam shug'ullanmoqda. Hozir har bir ko'chadagi imkoniyati cheklangan fuqarolarimizning ro'yxatini shakllantiryapmiz. Yaqin orada kunning ma'lum qismida zalni nogironlarga ajratib, sport bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratamiz.

Yoshlar orasida tadbirkorlikka qiziquvchilar soni ortib boryapti. O'zim biznes sohasi vakili bo'lganim uchun ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlagan holda yo'nalishlar beriyapman. Bo'lajak tadbirkorlarga munosib sharoit yaratish uchun mahallamizning markaziy – “Mustaqillik” ko'chasini “Yoshlar biznes markazi”ga aylantiryapmiz. “Yoshlar biznes markazi”


28 yo'nalishdagi yangil konstruksiyali savdodokonlari, xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tamaddixonalar, kitob do'konlaridan iborat bo'ladi.

Auksion orqali savdoga chiqarilgan yer maydonlari tadbirkorlik qilish istagidagi

28 nafar yosh yigit-qizlar tomonidan sotib olinib, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Hozir biznes markazining bir qismi ishga tushdi, qolganida qurilish ishlari davom etmoqda. Biznes markazida 100 nafardan ziyod yoshlar doimiy ish o'rniga ega bo'ladi.



Mahallamiz yoshlari orasida dehqonchilikka qiziquvchilar ham ko'p. 62 nafar yoshga 30 sotixdan yerlar ajratilib, dehqon xo'jaliklari tuzib berildi. Yana 10 nafar ishsiz yoshni Monomarkazga o'qishga yo'naltirdik. Ularning bandlegini ta'minlash uchun mahalla binosi hududidagi foydalanilmayotgan ayvonnini uch qismga bo'lib, homiylar ko'magida zamonaviy ayollar va erkaklar sartaroshxonasi hamda tikuvchilik sexi qurilib, tayyor holatga keltirildi. Monomarkaz bitiruvchilarining ijtimoiy holati og'irligini hisobga olgan holda ularga ayollar va erkaklar sartaroshxonasi bepul foydalanishga beriladi. Ish qurollari ham subsidiya asosida olinadi.



Safarmurod RAVSHANOV,
Qarshi tumanidagi “Omontepa”
mahallasi yoshlar yetakchisi



da sport musobaqalari tashkil etilib, mingdan ortiq yoshlar qamrab olindi. Musobaqa g'oliblari munosib sovg'alar bilan taqdirlandi.

Yil oxiriga qadar mahallamizda birorta ham ishsiz, bandlegi ta'minlanmagan yosh qolmaydi. Buning uchun menda hamma imkoniyatlar bor.



“
62 NAFAR YOSHGA
30 SOTIXDAN YERLAR
AJRATILIB, DEHQON
XO'JALIKLARI TUZIB BERILDI.
YANA 10 NAFAR ISHSIZ
YOSHNI MONOMARKAZGA
O'QISHGA
YO'NALTIRDIK.”

Mahalla hududida bo'sh turgan yana bir binoni tuman va shahar markazlarida repetitorlik qilib, dars berib yurgan 5 nafar yoshga ajratib berdik. Shu bilan mahallamizda o'quv markazi ham tashkil etildi. Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishga tayyorlanayotgan yoshlar va qo'shni mahallalik 300 o'g'il-qiz o'quv markaziga qamrab olindi.

Mental arifmetikasi bo'yicha yosh mutaxassisimizga ham alohida xona tashkil qildik. Bu yerda mahallamizdagi ikkita bog'cha bolalari ta'lim olmoqda.

Hunarmandchilikka qiziquvchilarga ham daromad olishi uchun imkoniyat yaratib berdik. Bir hunarmand yoshga 10 nafar havaskor yoshlarni birlashtirdik. Hunar o'rgatish bilan birga hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarib, savdo do'konlariga tarqatish ham yo'lga qo'yildi.

Mahallamiz yoshlarining madaniy hordiq chiqarishini ta'minlash ham e'tiborimiz markazida. Yaqinda “Maktab – hayotim” nomli kino namoyish etildi. Kinoda bosh rollarni ijro etgan Said Muxtorov, Umid Iskandarov, Dilshodbek Kattabekov, Bosit Rahmatov kabi mashhur aktyorlar bilan ijodiy uchrashuv yosh-u qari – barchaga unutilmas onlarni tuhfa etdi.

“Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida festival ham o'tkazdik. Mazkur festival doirasida



5 tashabbus olimpiadasi

O'QIMISHLI VA ZAMONAVIY

Bugungi kun yoshlari ko'p kitob o'qish bilan birga kompyuter texnologiyalaridan ham oqilona foydalana olishi lozim. Shu maqsadda “5 tashabbus olimpiadasi” tarkibiga kibersport musobaqalari kiritilgan.

Paxtakor tumanidagi “Do'stlik” mahallasida kibersport musobaqalarida ishtirok etish uchun 30 nafarga yaqin yosh jamoat qilgan. Musobaqa ikkita yo'nalishda – jamoaviy va yakka tartibda o'tkazildi.

Musobaqalar haqqoniy o'tishi uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan hakamlar nazorati o'rnatildi. G'oliblar keyingi bosqichga yo'llanmalarni qo'lga kiritdi.

Lobar QODIROVA

INSON QADRI ULUG‘, XOTIRA MUQADDAS



Xotira bor ekan, millat yashaydi, insonda g‘urur, iftixor tuyg‘ulari barq uradi. Xotira o‘zlikni anglashga, o‘tmishni doimo yodda tutishga da‘vat etib turadigan muqaddas tuyg‘udir, u orqali inson o‘zida yaxshi xislatlarni qaror toptirib boradi. Xotirasiz millat millat bo‘la olmaydi.

Shu bois Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi tomonidan 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan 26-aprel-10-may kunlari "Sharaf lentasi" aksiyasi; "Uch avlod uchrashuvlari"; "Inson aziz – xotira muqaddas" shiori ostida madaniy tadbirlar, davra suhbatlari, ochiq muloqot hamda ko‘rgazmalar, ijodiy kechalar, "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqasining respublika bosqichi, "Obodlik ko‘ngildan boshlanadi!" obodonlashtirish tadbirlari, ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik yo‘nalishida onlayn viktorinalar o‘tkazildi.

Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizning Talabalar shaharchasida tashkil etildi. Yoshlar ishlari agentligi xodimlari va faol yoshlar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari xonadonida bo‘lishib, sovg‘a-salomlar ulashildi. Xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yod etilib, oila-a‘zolaridan xabar olindi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tinchlikning qadriga yetish, yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash kabi fazilatlar targ‘ib etildi.

– Hech qaysi millat o‘tmishi va xotirasiz mustahkam kelajak bunyod eta olmaydi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi bo‘lim boshlig‘i Sharofiddin Xonimov. – Biz ham bugungi tinch va osuda hayotimizga o‘z-o‘zidan yetib kelmaganmiz. Shu bois Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat faxriylarimiz mahalla yoshlari hamda yoshlar yetakchilariga tinchlikning qadriga yetishni yana bir bor tushuntirdi. Bu kunda ko‘proq urushda jasorat ko‘rsatib, hayotini yurt ravnaqi va tinchligi yo‘lida baxshida qilgan ulug‘ ajdodlarimizni xotirlash, ularning ruhoniyatiga hurmat bajo keltirish va albatta, oila a‘zolarining holidan xabar olish tadbirning asosiy maqsadi bo‘ldi.



“
XOTIRA O‘ZLIKNI ANGLASHGA,
O‘TMISHNI DOIMO YODDA
TUTISHGA DA‘VAT ETIB TURADIGAN
MUQADDAS TUYG‘UDIR, U
ORQALI INSON O‘ZIDA YAXSHI
XISLATLARNI QAROR
TOPTIRIB BORADI.
”

“SHARAF LENTASI” SHARAF BAG‘ISHLADI

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz hayotidan mamnunlik bilan umr kechirmoqda. Shu dorilomon kunlarimiz uchun jang maydonlarida mardlaracha halok bo‘lgan ajdodlarimiz biz uchun hamisha ibrat va matonat timsolidir.

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Buxoro viloyatining har bir tuman va shaharlarida ham "Sharaf lentasi" aksiyasi keng miqyosda o‘tkazildi. Ko‘ksiga davlatimiz, tinchligimiz ramzi sanalgan bayraq aksitushirilgan lentalar taqilganda yurt-doshlarimiz yuzidagi tabassum va xotirjamlik qalbimizdagi shukrimizni yana ming karra oshirdi.

Yurt-doshlarimiz ko‘ksiga taqilgan "Sharaf lentasi" har birimizga sharaf bag‘ishladi.





UCH AVLOD UCHRASHUVI

Hududlarda aksiya doirasida keksa avlod vakillari, nuroniy otaxon va onaxonlar hamda yoshlar ishtirokida "Uch avlod uchrashuvlari" o'tkazildi. Albatta, har bir keksa avlodning hayot yo'li yoshlar uchun ibrat maktabidir. Ular o'rtasida bo'lib o'tgan ochiq muloqotlar yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirishga, ular kabi irodali insonlar bo'lishga xizmat qiladi.

Bunday uchrashuvlar Namangan shahridagi "Mingchinor" mahallasida ham bo'lib o'tdi. Uchrashuvda yoshi ulug' otaxon va onaxonlar hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi qiyinchiliklari, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat, nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehтиrom haqida so'zlab berdi. El-yurt ravnaqi yo'lida mamlakatimiz rahbariga yaqin ko'makchi, kamrabtaza bo'lish uch avlod uchrashuvining bosh mavzusiga aylandi.

Shuningdek, joylarda O'zbekiston xalqining fidoyiligi, jasorati va matonatini aks ettiruvchi hujjati va badiiy filmlar namoyish etildi. Bunday filmlar namoyishi minglab yoshlarni ochiq osmon ostida birlashtirdi. Mazkur aksiya yoshlarni hozirgi davrda hukm surayotgan tinchlik ne'matini qadrlashga undaydi va fidoyilik fazilatini shakllantirishga, vatanparvarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uylar, binolar, ko'chalar peshtoqiga ilingan hurligimiz belgisi – bayroqlar bayramga yanada iliqlik bag'ishladi.

Iqbol PARDAYEVA

XOTIRA BOR EKAN MILLAT BARHAYOT

Termiz shahridagi Xotira maydoni Motamsaro ona haykali siyosida dahshatli urushda halok bo'lgan farzandlari haqida o'ylab, nigohini bir nuqtaga qadagancha o'tirgan mushfiq ona chuqur qayg'uga botgan bo'lsa-da, ruhiyatida matonat, mustahkam iroda aks etgan. Go'yo farzandlari hamon tirik.

Bu yerga Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov, sektorlar rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi jamoasi, volontyorlar "Qizlar ovozi" klubi koordinatorlari, mahalla yoshlar yetakchilari hamda viloyat sardorlari tashrif buyurib, maydon uzra taralgan harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi. Vatanimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz yod etildi.

177



IMKONIYAT

TALABALAR UCHUN PREZIDENT GRANTI AJRATILADI

Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilingan.

Prezident grantiga da'vogar talabalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- tanlovda ishtirok etish uchun oliy ta'lim muassasi rektori (direktori) tomonidan birinchi kursda barcha fanlarni "a'lo" baholarga o'qigan, Prezident grantiga da'vogar talabaga shaxsiy fazilatlarini bo'yicha tavsifnoma berish;
- o'qiyotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga oid konferensiya (tanlov)larda ishtirok etish;
- ta'lim yo'nalishiga mos kamida ikkita ilmiy-tadqiqot ishi (asar)ni e'lon qilish;
- davlat tili bilan bir qatorda kamida bitta xorijiy tilni (MDH mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) va O'zbekiston tarixini bilish.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari

Prezident granti uchun ajratilgan kvotaning ta'lim sohalari bo'yicha taqsimoti hamda da'vogar abituriyentlar ro'yxati har yili kirish imtihonlari va tanlov to'liq yakunlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Muayyan ta'lim sohasi uchun ajratilgan Prezident granti kvotasi bo'yicha so'nggi o'ringidagi abituriyent va u bilan bir xil ball to'plagan barcha fuqarolar Prezident grantiga da'vogar bo'ladi. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishda qo'shimcha ball shaklida imtiyoz beriladigan toifadagi abituriyentlarning kirish imtihonlari natijalariga ko'ra to'plagan balliga qo'shib berilgan ballar Prezident grantiga da'vogarlarini aniqlashda hisobga olinmaydi.

Prezident grantiga da'vogar bo'lgan abituriyentlar davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi. Sovrindorlar birinchi kursda barcha fanlarni "a'lo" baholarga o'qigan, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yutuqlarga erishgan mazkur grantga da'vogar talabalar orasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika oliy ta'lim kengashi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida aniqlanadi. Tanlov natijalariga ko'ra, g'olib bo'lgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tayinlanadi va to'lanadi.

Prezident granti uchun belgilangan stipendiya ikkinchi kursning o'quv yili boshidan oy-ma-oy to'lanadi va shu munosabat bilan talabaga umumiy shartlarda belgilanadigan stipendiya tayinlanmaydi. O'quv semestri yakuniga ko'ra kamida bitta fondan o'zlashtirish ko'rsatkichi "a'lo" baho bo'lmaganda Prezident granti sohiblariga kelgusi o'quv semestri mobaynida umumiy tartibda belgilanadigan stipendiya tayinlanadi. Prezident granti uchun belgilangan stipendiya faqat navbatdagi o'quv semestri yakuniga ko'ra barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "a'lo" baho bo'lganda qayta tayinlanadi.

O'qish yakuniga qadar Prezident grantini uzluksiz olgan talabalar bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos va turdosh mutaxassislik bo'yicha magistraturaga kirish imtihonlarisiz qo'shimcha davlat granti asosida talabalikka qabul qilinadi.

@alisher_sadullaev telegram kanalidan olindi.

Shirin ABIDOVA,
O'zbekiston Volontyorlari
assotsiatsiyasi rahbari

“28 ILGAK”

O'zbekiston Volontyorlari assotsiatsiyasi Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ko'magida moliyalashtirilgan "Biz birgamiz" loyihasi g'oliblarini qarshi oldi.

Saralanganlar ichida 5 yildan ortiq ezgulik yo'lidagi "28 ilgak" ("28 petel Uzbekistan") klubi volontyorlariga faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar yetkazildi. Bu guruh volontyorlari turli yoshda bo'lib, bo'sh vaqtda muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar uchun maxsus jun tolali kalava-iptdan kiyim to'qishadi.

O'zbekiston bo'ylab bir nechta bolalar har kuni muddatidan oldin dunyoga keladi va hayot uchun kurashadi. Saxovatli insonlar, volontyorlar tomonidan mehr bilan to'qilgan buyumlar bunday chaqaloqlarga tekin yetkaziladi. Mehr ila to'qilgan kiyimchalar ularning tezroq o'sib, kuchga kirishida yordam beradi.

Guruh koordinatori Yelenaning so'zlariga ko'ra, muddatidan oldin (chala) tug'ilgan bolalarga issiq

sharoit yaratib berish kerak. Jundan to'qilgan kiyim qon tomirlarini kengaytirib, qon aylanishini yaxshilaydi. Asab talalarini uyg'otadi, shishlarni kamaytiradi va quruq issiq bilan ta'minlab, shamollashning oldi olinadi. Qo'y juni allergiya chaqirmaydi.



QATAG'ONDAGI QAHRAMON MILLAT AYOLLARI

Ular talabalarning sevimli o'qituvchisi, yoshlar tashkiloti rahbari, Markaziy komitetda bo'lim mudiri yoki farzandlariga butun umrini bag'ishlagan mushqatpar onalar edi. Ammo 30-yillarda esgan qatag'onning qonli shamoli ularni ham chetlab o'tmadi.

Mashaqqatli va sharafliligi taqdir yo'lini bosib o'tgan bu ayollar haqida eng ishonchli ma'lumotlarni poytaxtimizdagi "Shahidlar xiyoboni" maydonidagi "Qatag'on qurbonlari" muzeyidan, aniqrog'i, shu muzeyga keluvchilarga o'zining tarixidan so'zlovchi eksponatlardan olish mumkin. Ilk bor ko'rib turgan inson uchun o'zbek, qozoq, tojik, rus millatiga mansub 15 nafar ayolning surati muzeydan o'rin olgani hayratlanarli bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo fotokamera obyektiv yoki boshqa bir noma'lum nuqtaga mamnun, jiddiy, xayolchan yoki mahzun boqib turgan nurli siymolar surati ostidagi satrlarni o'qib, barchasini tushunib olish mumkin.

Iqtisodchi, gazeta muharriri, qishloq xo'jalik bo'limi mudiri, tibbiyot bilim yurti talabasi, yoshlar tashkiloti rahbari, ot bo'yicha mutaxassis lavozimlarida faoliyat yuritgan ayollar, shu bilan birga, hatto hech qayerda o'qimagan, farzand tarbiyasi bilan shug'ullangan uy bekalarini ham xirkin siyosat avj nuqtasiga yetgan 1937-1940-yillarda "Aksilinqilobiy tashkilot a'zosi" degan tuhmat bilan hibsga olingan. Ayrimlarini qamoqqa olish uchun adolatning ko'chasidan o'tmagan siyosatga birgina sabab yetarli edi - u xalq dushmanining rafiqasi.

Tarixdan yaxshi ma'lum, har bir buyuk shaxs ortida buyuk ayol turadi, u butun bir millatni

dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi. Shunday ulug' mashaqqatli vazifani nozik yelkasida ko'tarib turgan bir vaqtda qamoqqa olish, muzlagan o'lkaning sovuq lageriga sur-gun qilish, otasiz qolgan norasidalarini ona mehridan ham mahrum etish,



Maqsuda Is'hoqova



Katevan Islomova

shafaqatsizlarча qatlg hukm qilishni nima deb atash mumkin? 15 nafar ayolning gunohi nima edi? "Xalq dushmani" bo'htoni bilan ayblangan millat qahramoniga turmushga chiqqani, xayrli va ayni damda xatarli yo'dan ketayotgan insonning umr yo'ldoshi bo'lganini?

Bunday ayollardan biri - **Hikmat Fitratova**. O'zbek ayollarigagina xos iyyatga qarishgan go'zallik suratidan ham yaqqol sezilib turgan bu ayol iste'dodli shoir, faol siyosiy arbob, millat jonkuyari hisoblanmish jamiatdchi - Abdurauf Fitratning rafiqasi. Umr yo'ldoshi hibsga olingan 1937-yil 17-sentabr kuni Hikmatning ham qo'llariga kishan taqildi. "Xalq dushmanining xotini" degan "adolatli hukm" bilan 3 yilgacha hibsdan saqlangan ayol, nihoyat 1939-yilda ozod qilindi.

Yana bir ayanchli qismat egasi - o'qituvchi **Valentina Vaselva**. Barchamizga Botu taxallusi bilan tanish shoir Mahmud Xodiyev 1930-yil, oradan 11 yil o'tib

- 1941-yil rafiqasi Valentina ham qamoqqa olinadi. Eri "Xalq dushmani" deb e'lon qilingan ayol O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da o'zbek talabalariga rus



Matluba Muhammedova

tilidan dars bergan, o'qituvchilik lavozimidan haydab, ittifoq tomonidan 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilinadi. 1950-yilga kelib qamoqdan ozod etilganidan keyin ham umrining so'nggi kunlarigacha turmush o'tog'ining oqlanishi va asarlarining nashr etilishiga intilib yashadi.

Yana bir o'xshash qora taqdir sohibasi, turmush o'rtog'i "O'zqog'loptrest"da iqtisodchi lavozimida faoliyat yuritgan **Zinaida Rasulovadir**. Umr yo'ldoshi Ali Rasulov qamoqqa olingan. 1937-yilning 24-oktabrida ozodlikdan mahrum etilgan ayol qariyb 3 yil davomida qamoqda saqlangan. Ozodlikka chiqqan ayolning keyingi hayoti haqidagi ma'lumotlar hech qayerda uchramaydi.

O'zbekiston Xalq komissarlar soveti raisining o'rinbosari hisoblanmish Mo'min Usmonovning "Xalq dushmanining xotini" sifatida qamoqqa olingan rafiqasi ham jazo muddatini 5 yil davomida Yoqutistonda o'tagan. 1942-yilda ozodlikka chiqarilgan ayolga Toshkentda yashashga imkon berilmagan. Afsuski, uning hatto qachon vafot etgani ham ma'lum emas.

Matonatli bu ayollar orasida uzoq umr ko'rib, qiyinchiliklar oldida qad-dini bukmay mardona kurashganlar va alaloqibat yorug' kunlarga yetib kelganlar ham bor. **Rahbar Shermuhammedova** shunday mardonalar orasida eng ko'zga ko'ringanlardan.

1928-yilda Markazkom qishloq xo'jalik bo'lim mudiri M.Shermuhammedov bilan oila qurgan ayol ham qamoqqa olingan. O'sha



Elmira Islomova



Rahima Islomova



Zinaida Rasulova



Kimyo Ashurova



Basya Matqul

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

“

QANCHA ZULM
O'TKAZILMASIN, UMR
YO'LDOSHI, E'TIQODIDAN
KECHISHNI XAYOL HAM
QILMAGAN, BARCHA
QIYINCHILIKLARNI SABR
BILAN YENGIB O'TGAN
BU OQILA AYOLLARNI
HAR QANDAY DAVRDA
IBRAT QILIB KO'RSATSAK
ARZIYDI.

mashhur bo'hton sabab 1939-yilgacha qamoqda saqlandi. Qariyb bir asr umr ko'rgan Rahbar Shermuhammedova 2001-yil vafot etdi.

Millat ravnaqiga hissa qo'shish orzusida bo'lgani uchun ham "Xalq dushmani" deb e'lon qilingan, alohida hurmat va ehtiroimga sazovor yana bir qahramonimiz - **Basya Matqul**.

Turmush o'rtog'i Sulton Matqul bilan 1923-yil Germaniyaning Berlin shahriga o'qish uchun boradi va o'sha yerda tanishib, turmush quradi. 1936-1937-yillar Matqul-lar oilasida ham o'zining qonli izini qoldirib ketdi. 13-avgustda hibsga olingan Sulton Matquldan bir hafta keyin Basya ham aksilinqilobiy harakatlarda ayblanib, 3 yillik qamoq uchun hukm o'qildi.

Asosli ayblovlarisiz bir qancha vaqt qamoqxonaning sovuq hujralarida saqlangan insonlarga misol tariqasida: **Zuhra Tursunxo'jayeva**, **As'hab Mirsharopova** kabi yana ko'plab matonat sohibalarini keltirishimiz mumkin. Ularning porloq xotirasini faqat qatag'on qurbonlari kuni oldidan emas, shodiyona va shukrona kunlar arafasida ham yod etish har bir millat farzandi uchun qarz va farzdir. Qancha zulm o'tkazilmasin, umr yo'ldoshi, e'tiqodidan kechishni xayol ham qilmagan, barcha qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o'tgan bu oqila ayollarni har qanday davrda ibrat qilib ko'rsatsak arziydi.

TARG'IBOT ISHLARI DAVOM ETMOQDA

R.QAHRAMONOV,
Mirzo Ulug'bek tumani statistika bo'limi boshlig'i

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 205-maktabda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yil aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risidagi qarorining bajarilishi yuzasidan o'quv-seminar tashkil etildi.

Seminar soha mutaxassislari ishtirokchilarga ro'yxatga olish 2023-yil 1-25-noyabr kunlari o'tkazilishi, ushbu tadbirga tayyorgarlik ishlari tashkil etishda ko'cha nomlari, xonadon tartib raqamlarini shakllantirish, kadastir agentligi bilan hamorlikda mahalla fuqarolar yig'inining kartografik sxemalarini yangilash, qo'shimchalar kiritish haqida batafsil ma'lumot berdi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi boshlig'i B.Boymurodovning ta'kidlashicha, mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch yilga yaqin vaqt davom etadi. Ikkinchisi, asosiy bosqich bo'lib, bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruv o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi. So'nggi bosqich qariyb uch yil-davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

BARMOQNING ZARBI CHERTISHDIR...

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da maqol haqida shunday ta'rif keltirilgan: "Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihah mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap". Maktab adabiyot darsligida esa "Maqol ibratli so'zdir", "maqol" aslida arabcha "so'z" degan ma'noni bildiradi", "Maqolda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'lishi lozim" deyilgan.

Endi esa maqollardan ba'zi namunalar keltirsak. Qatrada quyosh aks etganidek, ularni o'qib, xalq ijodiyoti olami haqidagi tasavvurimizni boyitsak, ajabmas.

*"O'lsidagi kishnasharmish,
Yaqindagi tishlasharmish"*

Ko'rkam bino oldida turibsiz va uning suvratini olmoq istadingiz. Shunda orqaga yura boshlaysizki, toki bino bor bo'yicha tasvirga sig'sin. Ozroq uzoqlashsangiz, uning salobatini to'raligicha rasmda aks ettira olasiz. Ba'zida yonimizdagi insonlarni qanchalar qadrlashimizni bilish uchun biror joyga safar qilishimiz kifoya. Shunda anglaymizki, ular hayotimizda muhim o'ringa ega, ular bizga qadrdor. Ammo, afsuski, shuni tushunib yetgach ham, baribir yonimizdagilarga nisbatan muomalada xudbinlik qilib qo'yamiz. O'z bandalarni-da. Lekin ichimizda ularga kuchli hurmatimiz, mehrimiz bor.

*"Shoxiga ursang,
tuyog'i zirqiraydi"*

Insonlarni rishtalar bog'lab turadi. Ular bir-birlarini unutil yuborishlari unchalik oson ish emas. Ayniqsa, qarindoshlar orasida bu bog'liqlik yanada mustahkamroqdir. Qaysidir yaqinimiz bilan bo'lgan hodisa, albatta, bizga ta'sir qiladi. E'tiborsiz ketish mahol. Buni kengroq doirada ham olish to'g'ri bo'ladi. Biror yurtdoshimizning xorijda nohaqlikka uchragan xabari tarqalganda turli ijtimoiy tarmoqlarda uning tomonini olib yozilgan postlar, fikrlar ham shu maqolning ifodasidir. Garchi uni shaxsan tanimasak-da, bir tuproq odami ekanligimizdan qalblarga yaqin bilamiz. "Sardoba" suv ombori hodisasida jabrlanganlarga ko'mak berishdagi xalqning holati ham ayni shu maqolning hayotdagi aksidir.


*"Birlashgan daryo bo'lar,
tarqalgan irmoq bo'lar"*

Birdamlik, birlik - katta kuch. Xabarlar keladiki, bir ota o'g'illariga bittadan cho'p berib, sindirishini aytdi. O'g'illar ularni osongina sindiradi. Keyin ota bir necha cho'plarni birlashtirib, sindirishlarini aytganda ular bularni sindirilmaydi. Xuddi shuningdek, bir qo'shin qarshi tomonni mavh etmoq istaganda ularning o'rtasiga ziddiyat solishga urinadi. Qaysiki bir barmoqning zarbi chertishdir, ular birlashsa, mushtga aylanadi. Mushtning zarbasini anglash uchun bokschi bo'lishga hojat yo'q. Ba'zan bir millat vakillarining viloyat-viloyat bo'lib yoki mahalla-mahalla bo'lib, hattoki ko'cha-ko'cha bo'lib bir-biri bilan tortishishi, o'zi turgan tomon qolganlaridan ustun ekanligini isbotlashga tirsishishi odamni o'ylatiradi. Tomchi jala bo'lmas, deyilar. Kema teshiladigan bo'lsa, sening kayutangning shinaligidan ma'no yo'q.

"Yetti o'lchab, bir kes"

Shoshilishga odatlanmang. Bu, albatta, keng ma'noli. Ammo biz shulaming bittasini aytib o'tsak. Masalalar, hozirgi axborot davrida axborot immuniteti muhimdir. Qabul qilgan axborotimiz xulosa qilishimizda asos bo'ladi. Axborotning manbasi ishonchli bo'lishiga ahamiyat qaratmoq lozim. Ba'zi bir manbalar tarqatgan axborot suvrat kabi bo'ladi. Suvratda suvratga oluvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan narsaning ko'rishimiz mumkin. "Suvratlar"ni ko'rib xulosa qilishga shoshilish yaramaydi. Yaltiragan har narsa zar bo'lmaydi. Shuning uchun ham yetti o'lchab, bir kesmoq ma'qul.

Samariddin YO'LDOSHEV,
O'zbekiston talabasi



Xayriddin MUROD

"SO'QOQ" NIMA DEGANI?

Eshitgandirsiz, Toshkent viloyatida shunday qishloq bor. Poytaxtliklar orasida So'qoqning kabobi ma'lum va mashhur. Borganlar u yerning xushmanzara, bohava, suvi totli joyligini e'tirof etadi. Xo'sh, So'qoq nima degani? Bu nom qayerdan kelib chiqqan?

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida keltirilishicha, so'qoq deb kiyikning ola tusli turiga aytilgan. Kiyik odatda musaffo havoli, Susambilday joyda o'tlaydi. Yuqoridagi ta'riflarga ishonsak, So'qoq ham kiyiklarbop joy bo'lgan. Ehtimol, shu sabab kiyik nomi joy nomiga do'ngandir.

Aytishlaricha, biz bilgan barcha o'txo'ring kabobi barra kiyik kabobining oldidan o'taversin. Balki, so'qoq kabobi ham shu sabab tilga tushgan.

SURXON KO'RKIDIR BOYSUN, BAHOR GILAMIN YOYSIN...



Yulduz ERGASHEVA,
Surxondaryo viloyati
"Barkamol avlod" bolalar
markazining "Yosh jurnalist va notiq"
to'garagi a'zosi



Boysun - Allohning nazari tushgan zamin. Bu qadim o'lka tabiiy iqlimi, san'atsevar odamlari, iste'dodli yoshlari bilan ajralib turadi. Folklor san'atimiz, milliy qadriyatlarimizni hozirgi kunga qadar bezoval yetkazishda boysunliklarning xizmati beqiyos.

Surxondaryo viloyatida o'tkazilayotgan "Boysun bahori" xalqaro festivali xalqimizning folklor san'ati, qadriyat, urf-odat va an'analarini o'zida aks ettiradi.

Ik marotaba 2019-yili "Boysun bahori" festivaliga Surxondaryo viloyati "Barkamol avlod" bolalar markazidagi to'garak rahbarim Lola Abayeva bilan borgandim. Festivalning

ochilish marosimida "Urhuq" raqsim bilan ishtirok etganman. Keng adir, yam-yashil qirlar, yomg'irdan keyingi musaffo osmon ostida sahnaga chiqish qalblarga huzur bag'ishlagan.

Bu yilgi festival yanada fayzli o'tdi. Tadbirga Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar markazi mas'ul xodimlari ham keldi. Markazning "Do'ppido'zlik", "Kulolchilik", "Tasviriy san'at", "Kashtachilik" to'garagi a'zolari ijodiy ishlar ko'rgazmasini taqdim etdi. Shuningdek, Surxondaryo viloyati "Barkamol avlod" bolalar markazi "Folklor" jamoasining ham chiqishlari namoyish etildi.



START LOCAL & GO GLOBAL

IT-Park O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari sohasida fasilitator hamda IT-tashkilotlari uchun erkin iqtisodiy zona hisoblanib, o'z ichiga 600 dan ortiq rezident-kompaniyalar, 206 ta IT-markazlari, 80 dan ortiq IT-maktablar va 10 ta filialni qamrab oladi.

Biz sizlarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishga yordam berishimiz mumkin:

- dasturlash;
- IT-ingliz tili;
- grafik dizayn;
- kompyuter savodxonligi;
- mobil robototexnika.

+998 99 309 11 99

Bundan tashqari, IT-Park sizga BPO mutaxassisligiga ega bo'lish imkonini beradi!

"BPO School" ta'lim yo'nalishlari:

- dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash;
- logistika;
- qo'ng'iroqlarni qabul qilish va mijozlarni qo'llab-quvvatlash;
- reklama yaratish;
- buxgalteriya hisobi va boshqalar.

WWW.BPO.MITC.UZ

Biz bilan bog'lanish:

+998 71 209 11 99

Biz bilan birga bo'ling:

Telegram: @itpark_uz

Facebook: @itparkuzb

Instagram: @itpark_uz

LinkedIn: @itparkuz

Youtube: IT Park

Mover: IT Park



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqamli bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va saflandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

"Shara" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma - 555. Adadi - 10586. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

